



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqqan boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: info@xs.uz

2025 yil 14-mart, № 52 (8947)

Juma

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



O'zbekiston – Fransiya:

O'ZARO MUNOSABATLARNI MUSTAHKAMLASHGA QARATILGAN SAMARALI MULOQOTLAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Fransiya Respublikasi Prezidenti Emmanuel Makronning taklifiga binoan 11 – 13-mart kunlari davlat tashrifi bilan ushbu mamlakatda bo'ldi.



Davlatimiz rahbari 13-mart kuni Parij shahridagi Burbon saroyida Fransiya Milliy majlisi Raisi Yael Braun-Pive bilan uchrashuv o'tkazdi.

Ikki davlat o'rtasidagi parlament-

lararo almashinuvni yanada kengaytirish masalalari ko'rib chiqildi.

Ushbu tashrifning tarixiy ahamiyati, O'zbekiston va Fransiya o'rtasida strategik sheriklik munosabatlari

o'rnatilgan katta mamnuniat bilan qayd etildi.

Fransiya parlamenti quyi palatasi rahbari yangi O'zbekistonda amalga

oshirilayotgan demokratik o'zgarishlarni,

vakillik organlarining roli, xotin-qizlar, bolalar, yoshlar va nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari hamda ekologik xavfsizlik kafolatlari kuchayganini yuqori baholadi.

O'zbekiston – Fransiya parlamentlararo forumini tashkil etish va "Yo'l xaritasi" asosida do'stlik guruhlarini qayta tiklash masalalari muhokama qilindi.

O'zbekiston yetakchisi Milliy majlis Raisini joriy yil aprel oyida Toshkent shahrida bo'lib o'tadigan Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasida ishtirok etish uchun mamlakatimizga taklif etildi.

Uchrashuv yakunida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Faxriy mehmonlar kitobida qayd qoldirdi. Fransiya davlat tashrifi doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Parij shahri meri Ann Idalgo bilan uchrashdi.

Suhbat avvalida davlatimiz rahbari poytaxt merini yozgi Olimpiya va Paralimpiya o'yinlari muvaffaqiyatli o'tkazilgan bilan samimiy qutladi, shuningdek, Parij ko'chalaridan biriga Samarqand nomi berilgan uchun minnatdorlik bildirdi.

O'z navbatida, Ann Idalgo O'zbekiston rahbariga olimpiada tadbirlari davrida jamoat xavfsizligini ta'minlashda ko'rsatilgan yordam uchun tashakkur bildirdi.

Uchrashuvda O'zbekiston Prezidentining ushbu tashrifi tarixiy

natijalar bilan yakunlangani – ikki mamlakat o'rtasidagi ko'p qirrali munosabatlar strategik sheriklik darajasiga ko'tarilgan katta mamnuniat bilan qayd etildi.

Toshkent va Parij o'rtasidagi amaliy hamkorlik va almashinuvlarni imzolangan bitim asosida faollashtirish masalalari muhokama qilindi.

Shaharsozlikni rejalashtirish, "yashil" hududlar barpo etish, jamoat transportini rivojlantirish, raqamlashtirish, shuningdek, shahar kommunikatsiyalarini modernizatsiya qilish va ulardan barqaror foydalanish borasida tajriba almashish shular jumlasidan.

Bundan tashqari, o'zaro ko'rgazmalar, madaniyat va san'at kunlari, sayyohlik va gastronomik festivallar o'tkazish masalalari ko'rib chiqildi.

Uchrashuv yakunida Parij ko'chalaridan biriga Samarqand nomi berilishiga bag'ishlangan rasmiy marosim bo'lib o'tdi.

Davlatimiz rahbari va Parij meri O'zbekiston Prezidenti faxriy mehmon sifatida Parij shahrida bo'lgani to'g'risida qo'shma hujjatni imzoladilar. Ushbu esdalik yorlig'i meriya muzeyida namoyish etildi.

Shu bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Fransiya Respublikasiga tarixiy davlat tashrifining tadbirlarga boy dasturi yakuniga yetdi.

Davlatimiz rahbari Parij shahrida Fransiya Prezidenti Emmanuel Makron bilan samarali muzokaralar o'tkazdi.

Sammit yakunida Strategik sheriklik munosabatlarini o'rnatish to'g'risida qo'shma deklaratsiya, shuningdek, hamkorlikning turli yo'nalishlari bo'yicha bitimlarning salmoqli to'plami qabul qilindi.

Prezidentimiz Fransiyaning yetakchi kompaniya, bank va tashkilotlari rahbarlari bilan davra suhbatida ishtirok etdi. Umumiy qiymati 6,5 milliard yevro bo'lgan aniq kooperatsiya loyihalarini amalga oshirishni nazarda tutuvchi Investitsiya va innovatsiya sohasida hamkorlik dasturi qabul qilindi.

Ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirishga qo'shgan salmoqli hisssasi uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Fransiya Respublikasining oliy mukofoti – Faxriy legion ordeni bilan taqdirlandi.

YUNESKO bosh direktori Odri Azule bilan muzokaralarda hamkorlikni yanada rivojlantirish istiqbollari hamda tashkilot Bosh konferensiyasining Samarqand shahridagi 43-sessiyasiga tayyorgarlik ko'rish masalalari muhokama qilindi.

Tashrif tadbirlari yakunlangach, "Orli" xalqaro aeroportida davlatimiz rahbarini Fransiya sport va yoshlar vaziri Mari Barsak va boshqa rasmiy shaxslar kuzatib qo'ydi.

O'ZA.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

KUTIB OL, DUNYO...

SHARL DE GOLL, UINSTON CHERCHILL, FRANKLIN RUZVELT, YELIZAVETA II, LI KUAN YU...

ENDI ESA SHAVKAT MIRZIYOYEV!

Mendan Shavkat Mirziyoyevning bugungacha el-yurtimiz oldidagi eng buyuk xizmati nimadan iborat, deb so'rashsa, hech ikkilanmay, O'zbekiston va xalqimiz sha'nini, obro'sini qayta joyiga qo'yganida, deb ayta olaman. Zotan, kechagacha millatimizning ham, mamlakatimizning ham qimmatini qanday bo'lganini biz juda yaxshi bilamiz.

Iftixor

O'zbekiston desang, Pokiston, Afg'oniston va yana boshqa...istonlar nomini tilga olib, bevosita yoki jo'rttaga talmovsirab turadigan xorijliklar munosabatini ko'p ko'rar va bu bizning sha'nimizni kamsitardi. Til, milliy tilimizning ahvoli haqida-ku, umuman gapirib o'tirmasa ham bo'lardi. "Biz mustaqil bo'ldik", "Erkinlikni qo'lga kiritdik", deb do'ppimizni osmonga igr'itgan, shoirlar tilida aytganda, istiqlolning o'tgan chorak asrlik davrida ham madaniy jihatdan to'liq mustaqil bo'ldik, deb ayta olmaymiz. Masalan, milliy kodning eng asosiy unsuri bo'lgan til borasidagi siyosatimiz eski zamonlarimizdan ko'p farq qilgan emas.

To'g'ri, o'zbek tiliga davlat tili maqomi berildi, amalda esa uning maqomi va funksiyasi xuddi mustabidlik zamonlaridagidek, ifodalilik qilib aytganda, ro'zg'or tili darajasida qolib ketaverdi. O'sha ijodkorlarimiz romantizmga berilgan zamonlarda Davlat tili, deb e'tirof etiladigan o'zbek tili na ilm-fan, na-da siyosat tiliga aylandi. Hatto, bu tilni jiddiy masalalar munozarasida ishlatib

bo'lmaydi, deganday chetroqqa surib qo'yib, xalqaro munosabatlarda ham, rasmiy doiralarda ham an'anaviy, "millatlararo vosita" lisonidan keng foydalanishga ustunlik berildi...

Mayli, o'tgan kunlardan malomat qilish bizning vazifamizga kirmaydi. Aytayotgan mulohazalarimizdan esa muddao o'zga. Ya'ni har neniki sifati ziddi orqali ma'lum bo'ladi. Qolaversa, buyuk yozuvchimiz aytganidek, tarixga qarab ish tutish xayrlidir. Shu ma'noda, gapiradigan bo'lsak, bugungi O'zbekiston, xalqimiz turish-turmushi, mamlakatning xalqaro nufuzini kecha kashagan kunlarimiz yorqinroq ko'rsatadi, bizga.

Bir o'ylab ko'ring, kechagina milliy til masalasini ko'targan ziyoli kim, deb atalardi? Katta ehtimol bilan millatchi yoki kamida jamiyatda ayirmachilik qo'zg'ovchi buzmakor. Va eng og'riqli tomoni, kolonial mafkura tomonidan o'ylab topilgan ushbu tamg'a ko'pchilikni ajablantirmas, odamlar bunga o'rganib ham ketgandi.

Xo'sh, ayni madaniy stereotiplarni sindirish uchun qancha vaqt va jur'at kerak bo'ladi, deb o'ylaysiz. To'g'ri, ko'pchiligimizning "Biz hali bunday siyosiy-madaniy islohotlarga

tayyor emasmiz", "Davlat tili, ya'ni milliy tilga e'tiborni ko'tarsak, jamiyatda nosog'lom muhit paydo bo'lishi mumkin. Bu darajaga yetish uchun hali ancha qovun pishig'i bor", deganga o'xshash siyosiy uydirmalarni eshitaverib, qulog'imiz qotib qolgan. Ammo masala mutlaqo

Fransiya Prezidenti Emmanuel Makron o'z nutqini o'zbekcha lutf bilan tugatdi:

«Yashasin O'zbekiston, yashasin Fransiya! Yashasin Fransiya — O'zbekiston do'stligi!».

bunday chigal emas ekan. Uzoq yillar kamsitilgan, nechanchidir darajalarga tushirib ko'rsatilgan tilimizning maqomini ko'tarish uchun faqat siyosiy lider yuragi shu xalqqa, Vatanga bo'lgan kuchli muhabbat bilan urib tursa yetarli ekan.

Barchamiz yaxshi eslaymizki, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev zamonaviy O'zbekiston tarixida ilk bor 2020-yili BMT minbaridan turib o'zbek tilida nutq qildi. Bundan tashqari, davlatimiz rahbari bu masalada xalqaro protokol tartib-qoidalarini "buzish"ga ham o'zida jur'at topa oldi. Masalan, Prezidentimiz 2021-yilda Vengriya Bosh vaziri Viktor Orban

bilan o'tkazgan rasmiy uchrashuvda an'anaviy qonun-qoidani cheklab, o'zbek tilida muzokaralar olib bordi.

Bemalol "tarixiy" deb aytish mumkin bo'lgan ayni madaniy islohot maqomidagi qadamlar o'zbek tilining obro'sini yuksaklarga ko'tardi. Buyuk ajdodlarimiz gaplashgan bu buyuk til ba'zilar uqtirganidek, aslo ro'zg'or yoki chuchmal seriallar tili emas, balki xalqaro minbarlarda, davralarda jaranglashga qodir, qudratli, o'lmas va shu bilan birga, "siyosat tili" darajasiga mutlaqo munosib ekanini ko'rsatdi.

Men so'zim avvalida bekorga millatimiz Liderining o'z xalqi, Vatani oldidagi eng buyuk xizmati, yurt va millatning qadr-qimmatini,

Hamмамиз kuzatdik, o'qidik, kecha ijtimoiy tarmoqlar ham, milliy OAV ham bir-biridan quvonchli xabarlar va mulohazalar bilan to'yinganday bo'ldi. Yelisey saroyida Prezidentimizni qabul qilgan Fransiya Prezidenti Emmanuel Makron o'z nutqini o'zbekcha lutf bilan tugatdi: "Yashasin O'zbekiston, yashasin Fransiya! Yashasin Fransiya — O'zbekiston do'stligi!". Va uning ayni mana shu kalomi ijtimoiy tarmoqlarning o'zbek segmentida "portlash" effektini yuzaga keltirdi, desam, noto'g'ri gapirmagan bo'laman.

Oddiy cho'pondan tortib, akademikkacha, olis tog', cho'l ovullari yoki dunyoning narigi burchagida yashayotgan qay bir vatandoshimiz borki, barchasini bu hodisa mutaassir qildi. Millionlab yurtdoshlarimiz ushbu larvoqlardagi o'z sahifasida ulashgan o'zbek tilidagi ayni "postni"ni iftixor ramzi sifatida bir-birlariga ulashishdi.

Endi o'ylang, yuqorida aytganimizdek, kechagina bozor-o'char, bola-chaqa bilan munosabat qilishdagina ishlatiladigan til, deb ko'rsatiladigan, uqtiriladigan ONA TILIMIZga nafaqat Yevropa, balki jahonning eng qudratli davlatlaridan birining rahbari hurmat ko'rsatsa, shu tilda tilak bildirs, bu hodisani milliy tariximizdagi ulkan evrilish, demay yana nima deysiz mumkin?!

Axir O'zbekiston bundan oldin ham bor edi, ilgari ham dunyo davlatlari bilan diplomatik aloqalarimiz yo'q edi, deyolmaymiz... Ammo bugun jahonning bizga bo'lgan qarashi ham, muomalasi ham o'zgardi. Bu munosabatlar o'z-o'zidan bo'ladi, deb o'ylaysizmi? Yoki o'zbekchilik, deganday to'rtta patir, novvotu qand-qurs bilan erishiladi, deb xayol qilaysizmi bunday martabaga?!

Uchrashuv PARLAMENTLARARO ALOQALARNI RIVOJLANTIRISH YO'LIDA

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikeri Nuriddin Ismoilovning Rossiya Federatsiyasi Federal Majlisi Davlat dumasini Raisi Vyacheslav Volodin boshchiligidagi delegatsiya a'zolari bilan uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Muloqot avvalida mehmonlarga yangi tahrirdagi Konstitutsiya va "O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlar, Qonunchilik palatasining tarkibiy tuzilishi, uning qonun ijodkorligi yo'nalishidagi faoliyati, palata qo'mitalari, komissiyalarining asosiy vazifalari haqida batafsil ma'lumot berildi.

O'z navbatida, V. Volodin samimiy qabul uchun minnatdorlik bildirib, ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarning keyingi yillarda tobora kengayishi va mustahkamlanishi, turli sohalardagi serqirra hamkorlikning rivojlanishida kuzatilayotgan barqaror ijobiy tendensiyani mamnuniat bilan ta'kidladi.

Shuningdek, o'zaro munosabatlar jadal rivojlanayotgani, O'zbekiston hamda Rossiya o'rtasidagi hamkorlik yangi formatga ega bo'lgani, barcha yo'nalishda aloqalar faollashib, ko'p tomonlama muloqotlar mustahkamlanib borayotgani e'tirof etildi.

Mehmon O'zbekistonda turli sohalarda amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlarni yuqori baholab, Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan mintaqaviy aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan konstruktiv va ochiq tashqi siyosat tahsiga sazovorligini bildirdi.

Ikki tomonlama aloqalarni rivojlantirishda muhim omil bo'lgan parlamentlararo hamkorlikni yanada kengaytirish va sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish har tomonlama foydali ekanligi qayd etilib, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi bilan Rossiya Federatsiyasi Federal Majlisi Davlat dumasining Hamkorlik bo'yicha parlamentlararo komissiyasi faoliyatini takomillashtirish zarurligi ta'kidlandi.

Muloqot davomida parlamentlararo forumlar, partiyalar va fraksiyalararo muloqotlar o'tkazish bo'yicha fikrlar almashilib, hamkorlikni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari belgilab olindi.

Uchrashuv konstruktiv ruhda o'tdi.

"Xalq so'zi".

KUTIB OL, DUNYO...

Men shunday tushunamanki, barchamizning ko'ngillarimizni yoritgan, g'ururimizni ko'targan bu madaniy hodisalar Prezidentimiz ish boshlagan ilk kunlaridanoq qalbiga tukkan ulug' g'oya – millatning qadri qadri joyiga qo'yish, uning kimligini dunyoga ko'rsatishdek qat'iy olingan qarorning davomidir. Aslida barchamizning qalblarimizda iftixor tuyg'ulantirgan bu voqealarni bemalol siyosiy iroda g'alabasi, desak ham to'g'ri bo'ladi. Zotan, YEldagi yagona atom qudratiga, bundan tashqari, insoniyat tamaddunidagi o'z saltanatchilik (imperiya) tarixiga ega mamlakat O'zbekiston bilan siyosiy mulozamatlariz munosabatni yo'lga qo'ydiki, desak, masala oydinlashgan bo'lar edi.

Tarixga nazar tashlasak, Vatanimiz bilan ushbu davlat o'rtasidagi diplomatik aloqalar ko'p qadim zamonlar ilgari yo'lga qo'yilganini ko'rishimiz mumkin. Manbalar shuni ko'rsatadiki, buyuk bobomiz sohibqiron Amir Temur o'z vaqtida Fransiya qiroli Karl VI bilan yozishmalar qilgan, rasmiy aloqa o'rnatgan. Albatta, tariximizning o'sha shonli davrlari Vatanimiz qudratiga berilgan baho hozir ham kishi ko'nglini maszur qiladi. Ammo u o'tmish. Lekin haqiqat shundaki, nafaqat Fransiya, balki u joylashgan butun boshli "Ko'hna qit'a" Temur davlatini o'sha zamon qudrati (derjava), o'zini esa Yevropa xaloskori, deb bilishadi.

Xursand bo'ladigan jihat esa bunda: davlatchiligimiz, xalqimiz zakosi, milliy madaniyatimiz dunyoning oldi davlatlari tomonidan xuddi Temur zamonlaridagidek bugun yana tan olinmoqda.

Bunday deyishimga, albatta, yetarli asoslarim bor. Birinchidan, tashrif davomida ikki tomonni ham to'liq qanoatlantiradigan, manfaatlariga mos tushadigan ko'plab hujjatlar, jumladan, ular orasida eng muhimlaridan biri bo'lgan ikki davlat o'rtasida strategik sheriklik o'rnatish to'g'risidagi qo'shma deklaratsiya qabul qilindi. Ayni hujjat qanday kuchga ega ekanini siyosatga uncha yaqin bo'lmagan odam ham yaxshi tushunadi.

Ikkinchidan, tashrifning biz uchun eng quvonchli bo'lgan voqeasi, o'sha mashhur Yelisey saroyida Makron tomonidan Prezidentimizning Fransiyani eng oliy davlat mukofoti – Faxriy legion ordeni (fr. Legion d'honneur) bilan mukofotlangani bo'ldi. 1802-yil 19-mayda imperator Napoleon Bonapart tomonidan ta'sis etilgan va ayni mukofot bugungacha nafaqat Fransiya, balki dunyodagi eng nufuzli mukofotlardan biri bo'lib qolmoqda. Albatta, uning obro'si, martabasini uni olgan tarixiy shaxslar, siyosatchilar, madaniyat va san'at arboblari ham belgilaydi.

O'z vaqtida Fransiya Prezidenti Sharl de Goll, Buyuk Britaniya Bosh vaziri Uinston Cherkhill, mikrobiologiya asoschisi mashhur olim Lui Paster, fransuz aktyori

Jan-Pol Belmondo, yozuvchi, "Uch mushketyor" asari muallifi Aleksandr Dyuma, birinchi fazogir Yuriy Gagarin, Janubiy Afrika Respublikasi Prezidenti Nelson Mandela, AQSH Prezidenti Franklin Ruzvelt, Buyuk Britaniya qirolichasi Yelizaveta II, Singapur Bosh vaziri Li Kuan Yu....

Qisqagina ushbu ro'yxatga jiddiy nazar solsangiz, safda birorta tasodifiy shaxsni ko'rmaysiz. Barchasi dunyo siyosati, madaniyati, bir so'z bilan aytganda, insoniyat tamadduniga ta'sir qilgan liderlar, insonlar... Siz ushbu yuksak mukofotni o'zbekning chiroyli qoshu ko'ziga qarab berdi, deb o'ylaysizmi? Bu martabaga erishish, yuqoridagi jahon xalqlari tan olgan nufuzli ro'yxatdan joy olish uchun juda ulkan mehnat kerak bo'ladi, aziz o'quvchi.

Ushbu mukofot Prezidentimizning nafaqat mamlakatimiz, balki mintaqamizda amalga oshirayotgan tarixiy o'zgarishlar jarayoni ijodkori sifatidagi irodali siyosati natijasi, desak, haqiqatni aytgan bo'lamiz. Xususan, shaxsan Shavkat Mirziyoyevning siyosiy irodasi tufayli bugungi kunga kelib Markaziy Osiyo yagona geosiyosiy subyekti sifatida e'tirof etila boshlanganini juda ko'p siyosatchilar, tahlilchilar haqli ma'noda e'tirof etishmoqda.

Jumladan, mintaqamizdagi bugungi jarayonlar haqida munozara qiladigan siyosatchiyu analitiklar integratsion jarayonlarning samaradorligi integratsiya subyektlarini o'z atrofida jipslashtira oladigan salohiyatga ega davlatlarning mavjudligi bilan bog'liq, deya e'tirof etishadi. Va ayni vazifani uddalashga qodir bo'lgan mintaqa davlati sifatida O'zbekiston nomini keltirishadi. Juda qisqagina ushbu ta'rif ham Prezidentimizga dunyoda yuksak obro'ga ega bo'lgan ushbu mukofot qanday xizmatlari uchun berilganini asoslashga yetadi, menimcha.

Bugun meni yozishga undagan narsa qalbimni yondirgan faxr-iftixor tuyg'ulari bo'ldi. Ha, bugun meni, sizni, barchamizni quvonishga, bir-birimizni qutlashga qutlug' bir sabab bor. Bu, muhtaram Prezidentimizning Yevropa markazida turib, davlatimiz, millatimiz sha'nini yuksaklarga ko'targani bo'ldi. Shunday ulug' e'tirof, martaba barchamizga muborak bo'lsin!

Fursatdan foydalanib, Prezidentimizni, qolaversa, butun xalqimizni o'z saflarida yetti million vatandoshimizni birlashtirgan kasaba uyushmalari a'zolari nomidan qizg'in qutlamoqchiman.

**Yuksak mukofot muborak bo'lsin, muhtaram Prezident!
Yuksak mukofot muborak bo'lsin, aziz vatandoshlar!**

Qudratilla RAFIQOV,
O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi raisi,
Oliy Majlis Senati a'zosi.

Aks sado

ISHONCHLI VA MANFAATLI HAMKORLIKNING AMALIY IFODASI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 11 – 13-mart kunlari davlat tashrifi bilan Fransiya Respublikasida bo'ldi.

Ikki davlat yetakchilari olib borgan muzokaralarda savdo-iqtisodiy, investitsiya-moliyaviy sohalarida o'zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish, Fransiyani yetakchi kompaniya va korxonalar bilan kooperatsiya loyihalarini ilgari surishga ustuvor ahamiyat qaratildi.

Geologiya, energetika, infratuzilmani rivojlantirish, transport va boshqa tarmoqlarda Fransiyani yetakchi kompaniyalari bilan O'zbekistonda 6,5 milliard yevrolik istiqbolli kooperatsiya loyihalarini amalga oshirishni nazarda tutuvchi Investitsiya va innovatsiya sohalaridagi hamkorlik dasturi va O'zbekiston – Fransiya investitsiya kengashini ta'sis etish bo'yicha kelishib olindi.

Eng muhimi, Strategik sheriklik o'rnatish to'g'risidagi qo'shma deklaratsiya qabul qilindi. U juda katta natija sifatida baholanishi kerak. Bu O'zbekiston va Fransiya munosabatlari yanada yuqori darajaga chiqayotgani, davlatlar orasida o'zaro ishonch munosabatlari o'rnatilayotgani hamda ular alohida xalqaro masalalar bo'yicha tizimli ishlashidan dalolat beradi.

Fransiya tomonidan O'zbekistonga juda katta ehtirom ko'rsatilganini alohida ta'kidlash joiz. Bu tashrifning tashkiliy, protokol jihatlarida o'z ifodasini topib, o'z tilini juda hurmat qiladigan Fransiya Prezidenti Emmanuel Makron davlatimiz rahbariga o'zbek tilida murojaat qilishi va uning "Yashasin O'zbekiston, yashasin Fransiya! Yashasin Fransiya – O'zbekiston do'stligi!" deya qabul marosimida qilgan chiqishi yurtdoshlarimiz orasida O'zbekistonga, Prezidentimizga bo'lgan Fransiyani yuksak munosabati, deb baholanyapti.

Ayniqsa, Prezidentimiz Fransiyani oliy mukofoti – Faxriy legion ordeni Fransiya Prezidenti tomonidan topshirilgani davlatimiz rahbarining ikki davlat hamkorligini rivojlantirish va O'zbekiston Prezidentining olib borayotgan ochiq, pragmatik hamda xalq manfaatlarini ustuvor qilgan tashqi siyosatiga, xalqaro maydondagi tashabbuslariga ushbu mamlakat rahbariyatining yuqori bahosi sifatida bilishimiz kerak.

Bu e'tirof O'zbekiston tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarning katta yutuqidir. Sababi, Fransiyani yalpi ichki mahsuloti 3 trillion AQSH dollaridan ortiqni tashkil qilib, u ushbu

ishlab chiqarishda yetakchi o'rinni egallaydi. Shuningdek, Fransiya tibbiyot texnologiyalari, kardiologiya, onkologiya va biotexnologiya sohalarida ilg'or davlatlardan biri hamdir.

Oxirgi yillarda O'zbekiston va Fransiya munosabatlari jadal rivojlanmoqda. 2020-yilda tovar aylanmasi 220 mln. AQSH dollari bo'lgan bo'lsa, 2024-yilda mazkur ko'rsatkich 1,1 mlrd. AQSH dollaridan oshdi.

O'zbekistonda 50 ta korxonada 100 foiz Fransiya kapitali bilan faoliyat ko'rsatmoqda. Fransiya kompaniyalari O'zbekistonda kommunal xizmatlar ("Veolia", "Suwaysh"), energetika, jumladan, "yashil" energiya ("EDF"), "Total Energies", "Voltaia", "Orano", "Assystem") va oziq-ovqat sanoati (Lactalis) kabi muhim sohalarida mavjud.

O'zbekiston va Fransiya universitetlari o'rtasida qo'shma dasturlar tashkil qilingan. 2018 – 2024-yillarda turizm, arxeologiya, dizayn va moda, fransuz filologiyasi, aviatsiya, inlyuziv ta'lim, biznesni boshqarish, energetika, siyosatshunoslik, aviatsiya va boshqalar kabi ta'lim sohasida 50 dan ziyod shartnomalar va memorandumlar imzolangan.

Ayni paytda mamlakatimizdagi 602 ta maktabda 141,3 ming nafardan ortiq o'quvchilar, shuningdek, 11 ta oliy o'quv yurtida 15 ming nafar talaba fransuz tilini o'rganmoqda.

Parlamentlararo hamkorlik delegatsiyalar almashinuvi, ikki mamlakat parlamentlaridagi "do'stlik guruhlari" faoliyati, parlamentlarga birlashmalar va ko'p tomonlama parlament tuzilmalari tomonidan uyushtirilayotgan xalqaro tadbirlarda qatnashish orqali izchil rivojlanayapti.

O'zbekiston va Fransiya parlamentariylarining o'zaro hamkorligi tajriba almashish, global hamda mintaqaviy muammolarni muhokama etish, shuningdek, ko'p tomonlama sheriklikni mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. Bu galgi rasmiy tashrif O'zbekiston va Fransiya o'rtasidagi keng qamrovli, ishonchli hamda o'zaro manfaatli hamkorlikning mantiqiy davomi bo'lib, kelajakda mamlakatlar o'rtasidagi siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar sohadagi aloqlarning yanada rivojlanishiga xizmat qiladi.

Ushbu tashrif Shavkat Mirziyoyev 2016-yil dekabr oyida O'zbekiston Prezidenti lavozimiga kirishganidan so'ng amalga oshira boshlagan xalqaro hamkorlikni chuqurlashtirish va ochiq siyosatga mos keladi. Qolaversa, O'zbekiston va Fransiya o'rtasidagi xalqaro munosabatlarni mustahkamlash yo'lidagi muhim qadamdir.

Tashrif doirasida Fransiyani yetakchi kompaniyalari bilan O'zbekiston iqtisodiyoti rivojiga salmoqli hissa qo'shishi mumkin bo'lgan qo'shma loyihalarni amalga oshirish masalalari muhokama qilindi. Bunday yuksak darajadagi muzokaralar O'zbekiston rahbariyatining xalqaro maydonda ochiq muloqot va o'zaro manfaatli sheriklik munosabatlariga intilishini namoyon etadi.

Umuman, mamlakatning tashqi siyosiy faoliyati amalga oshirilayotgan ichki o'zgarishlar bilan birgalikda investitsiyalarni jalb etish, tadbirkorlikni rivojlantirish va mamlakatimiz qat'iyatli salohiyatini mustahkamlashga qaratilgan modernizatsiya strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirishga xizmat qilmoqda.

Antonio BUSKARDINI, "Travel Tomorrow" kompaniyasi bosh direktori va asoschisi (Belgiya):

– 10-mart kuni Parij shahrida bo'lib o'tgan va mamlakatlar o'rtasidagi turizm aloqalarini mustahkamlashda muhim voqeaqa aylangan O'zbekiston – Fransiya turizm forumida ishtirok etganimdan mamnunman.

So'nggi yillarda Fransiyani eng yirik televidiyo tarmog'i – "TV5Monde" uchun oltita hujjatli film suratga olish orqali O'zbekiston va Fransiya o'rtasidagi aloqlarni mustahkamlashga hissa qo'shganimdan faxrlanaman. Ushbu hujjatli filmlar O'zbekistonni fransuz tilida so'zlashadiganlar o'rtasida tanitishda muhim rol o'ynadi.

O'zbekiston 2024-yilda rekord darajada – 10 million xalqaro sayyohni qabul qildi va bu mamlakatning jahon sayyohlik yo'nalishi sifatidagi jozibadorligini namoyish etdi. Bundan tashqari, O'zbekiston turizmini rivojlantirishdan tashqari, mehmonxonona sektori, infratuzilma va barqaror sayyohlik loyihalarini amalga oshirish uchun Fransiya investitsiyasini jalb ravishda jalb qilyapti. Fransiya biznesi va sayyohlik kompaniyalari bilan aloqalarni mustahkamlash yuqori sifatli turizm xizmatlarini kengaytirish hamda boshqa mamlakatlardan ham sayyohlarning yangi to'loqini jalb etishda asosiy omil bo'layotir.

Ana shunday ijobiy o'zgarishlarni inobatga olgan holda, Yevropa poytaxti Bryusseldagi turizm va sarmoyaga bag'ishlangan ixtisoslashtirilgan forumni o'tkazish uchun ushbu jadalikdan foydalanish vaqti keldi, deb o'ylayman. Bu O'zbekistonning Yevropa bozorida ishtirokni kengaytirish, asosiy manfaatdor tomonlarni jalb qilish hamda ko'hna qit'a bilan yangi hamkorlikni yo'lga qo'yish uchun strategik platformaga aylinishi mumkin.

Syuy TAO, Yevroosiyo ijtimoiy taraqqiyot instituti direktori o'rinbosari (Xitoy):

– O'zbekiston Prezidentining Fransiyaga davlat tashrifi ikki tomonlama savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy aloqalarni rivojlantirish uchun yangi istiqbollarni ochmoqda. Imzolangan hukumatlararo va idoralararo kelishuvlarning mustahkam to'plami har ikki tomonning ko'p

IKKI MAMLAKAT TARAQQIYOTIGA IJOBIY TA'SIR KO'RSATUVCHI TASHRIF

Xorijiy ekspert doiralari vakillari oliy darajadagi O'zbekiston – Fransiya sammiti yakunlari haqida

13-mart kuni Prezident Shavkat Mirziyoyevning Fransiyaga uch kunlik davlat tashrifi yakunlandi.

Yelisey saroyida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Fransiya Prezidenti Emmanuel Makronning muzokaralari bo'lib o'tdi.

Davlat rahbarlari ko'p qirrali O'zbekiston – Fransiya munosabatlarini yanada rivojlantirish va mustahkamlash masalalarini yuzma-yuz hamda delegatsiyalar ishtirokida atroflicha muhokama qilildi.

Savdo-iqtisodiy va investitsiya-moliyaviy sohalarida o'zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish, Fransiyani yetakchi kompaniya va korxonalar bilan kooperatsiya loyihalarini ilgari surishga ustuvor ahamiyat qaratildi. Uzoq muddatli kooperatsiya aloqalarini yo'lga qo'yishga ko'maklashish maqsadida O'zbekiston – Fransiya investitsiya kengashini ta'sis qilish va uning birinchi yig'ilishini joriy yil iyun oyida Toshkent investitsiya forumi doirasida o'tkazish taklif etildi.

Muzokaralar yakunida O'zbekiston va Fransiya yetakchilari Strategik sheriklik o'rnatish to'g'risidagi qo'shma deklaratsiyani qabul qildi.

Tashrifning eng muhim nuqtasi O'zbekiston Prezidentining ikki mamlakat hamkorligini rivojlantirish, xalqlarimiz o'rtasidagi do'stlik va o'zaro anglashuvni mustahkamlashga qo'shgan ulkan hissasi uchun Fransiyani oliy mukofoti – Faxriy legion ordeni bilan taqdirlangani bo'ldi.

Xorijiy ekspertlar Parijda bo'lib o'tgan oliy darajadagi O'zbekiston – Fransiya muzokaralari natijalarini, xususan, uzoq muddatli istiqbolida ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirish uchun ustuvor yo'nalishlari

sifatida belgilangan hamkorlikning aniq maqsadlarini tarixiy, deya baholamoqda.

E'tirof



Kasper OXMAN, "Kierunek Kawkaz" axborot-tahil portali asoschisi (Polsha):

– Ushbu tashrif Shavkat Mirziyoyev 2016-yil dekabr oyida O'zbekiston Prezidenti lavozimiga kirishganidan so'ng amalga oshira boshlagan xalqaro hamkorlikni chuqurlashtirish va ochiq siyosatga mos keladi. Qolaversa, O'zbekiston va Fransiya o'rtasidagi xalqaro munosabatlarni mustahkamlash yo'lidagi muhim qadamdir.

Tashrif doirasida Fransiyani yetakchi kompaniyalari bilan O'zbekiston iqtisodiyoti rivojiga salmoqli hissa qo'shishi mumkin bo'lgan qo'shma loyihalarni amalga oshirish masalalari muhokama qilindi. Bunday yuksak darajadagi muzokaralar O'zbekiston rahbariyatining xalqaro maydonda ochiq muloqot va o'zaro manfaatli sheriklik munosabatlariga intilishini namoyon etadi.

Umuman, mamlakatning tashqi siyosiy faoliyati amalga oshirilayotgan ichki o'zgarishlar bilan birgalikda investitsiyalarni jalb etish, tadbirkorlikni rivojlantirish va mamlakatimiz qat'iyatli salohiyatini mustahkamlashga qaratilgan modernizatsiya strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirishga xizmat qilmoqda.

Antonio BUSKARDINI, "Travel Tomorrow" kompaniyasi bosh direktori va asoschisi (Belgiya):

– 10-mart kuni Parij shahrida bo'lib o'tgan va mamlakatlar o'rtasidagi turizm aloqalarini mustahkamlashda muhim voqeaqa aylangan O'zbekiston – Fransiya turizm forumida ishtirok etganimdan mamnunman.

So'nggi yillarda Fransiyani eng yirik televidiyo tarmog'i – "TV5Monde" uchun oltita hujjatli film suratga olish orqali O'zbekiston va Fransiya o'rtasidagi aloqlarni mustahkamlashga hissa qo'shganimdan faxrlanaman. Ushbu hujjatli filmlar O'zbekistonni fransuz tilida so'zlashadiganlar o'rtasida tanitishda muhim rol o'ynadi.

O'zbekiston 2024-yilda rekord darajada – 10 million xalqaro sayyohni qabul qildi va bu mamlakatning jahon sayyohlik yo'nalishi sifatidagi jozibadorligini namoyish etdi. Bundan tashqari, O'zbekiston turizmini rivojlantirishdan tashqari, mehmonxonona sektori, infratuzilma va barqaror sayyohlik loyihalarini amalga oshirish uchun Fransiya investitsiyasini jalb ravishda jalb qilyapti. Fransiya biznesi va sayyohlik kompaniyalari bilan aloqalarni mustahkamlash yuqori sifatli turizm xizmatlarini kengaytirish hamda boshqa mamlakatlardan ham sayyohlarning yangi to'loqini jalb etishda asosiy omil bo'layotir.

Ana shunday ijobiy o'zgarishlarni inobatga olgan holda, Yevropa poytaxti Bryusseldagi turizm va sarmoyaga bag'ishlangan ixtisoslashtirilgan forumni o'tkazish uchun ushbu jadalikdan foydalanish vaqti keldi, deb o'ylayman. Bu O'zbekistonning Yevropa bozorida ishtirokni kengaytirish, asosiy manfaatdor tomonlarni jalb qilish hamda ko'hna qit'a bilan yangi hamkorlikni yo'lga qo'yish uchun strategik platformaga aylinishi mumkin.

Syuy TAO, Yevroosiyo ijtimoiy taraqqiyot instituti direktori o'rinbosari (Xitoy):

– O'zbekiston Prezidentining Fransiyaga davlat tashrifi ikki tomonlama savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy aloqalarni rivojlantirish uchun yangi istiqbollarni ochmoqda. Imzolangan hukumatlararo va idoralararo kelishuvlarning mustahkam to'plami har ikki tomonning ko'p

qirrali hamkorlikni yanada chuqurlashtirishga jiddiy intilishdan dalolat beradi.

Davlat tashrifi doirasida madaniyat, turizm, ta'lim va tibbiyot sohalarida o'tkazilgan ko'plab qo'shma tadbirlar O'zbekiston – Fransiya munosabatlaridagi ushbu muhim voqeaqa yanada shijoat bag'ishladi.

Shu bilan birga, tashrif dasturidan YUNESKO bosh direktori bilan uchrashuv o'rin olganiga ham e'tibor qaratdim. Shu munosabat bilan O'zbekistonning xalqaro madaniy-gumanitar hamkorlikdagi, xususan, YUNESKO doirasidagi faol rolini alohida ta'kidlayotganim. Joriy yilda YUNESKO Bosh konferensiyasi 43-sessiyasining tarixiy Samarqand shahrida o'tkazilishi O'zbekistonning bu boradagi sa'y-harakatlarining xalqaro miqyosdagi e'tirofidir.

Ashraf Abu ARAFA, "Al-Diplomasi" axborot agentligi bosh muharriri (Misr):

– Tashrif ikki davlat o'rtasidagi strategik sheriklikni mustahkamlagan, ko'p qirrali hamkorlikning yangi istiqbollarni ochgan muhim voqea bo'ldi. Bunday tashriflar ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etib, iqtisodiy, sarmoyaviy, madaniy-ma'rifiy va boshqa sohalaridagi hamkorlikni yanada rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratadi. Muzokaralar davomida erishilgan kelishuvlar, jumladan, strategik sheriklik munosabatlarini yo'lga qo'yish O'zbekiston – Fransiya hamkorligiga yangi sur'at bag'ishlaydi.

Tashrifning iqtisodiy jihatiga alohida e'tibor qaratish joiz, deb o'ylayman. Imzolangan shartnomalar va investitsiya loyihalari ilg'or texnologiyalarni jalb etish, infratuzilma, energetika, transport va muhim mineral-xomashyo tarmoqlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ishonamanki, O'zbekiston Prezidentining Fransiya davlat tashrifi yakunlari uzoq muddatli istiqbolida ikki mamlakat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Rahmon O'LMASOV, Rossiya – Tojikiston (slavyan) universiteti professori:

– O'zbekiston Prezidentining Parijga tashrifi misli ko'rilgan va murakkab xalqaro vaziyatda o'tmoqda. Bundan 70 yil avval Markaziy Osiyo yetakchilarining Yelisey saroyida kutub olinishini tasavvur qilish qiyin edi. O'zbekiston Fransiya bilan munosabatlarida yetakchi hisoblanadi. Buni raqam va faktlar ham tasdiqlaydi.

Ishonchim komilki, ikki tomonlama o'zbek – fransuz munosabatlari O'zbekiston bilan qo'shni davlatlarga ham ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, tashrif Fransiyani Yevropa qit'asidagi faoliyati nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega. Imzolangan hujjatlar ham iqtisodiy, ham boshqa sohalaridagi sheriklik ko'laminu kengaytirib, hamkorlikning barcha muhim bo'lgan yo'nalishlarini qamrab oldi.

Bu har ikki tomon ham hamkorlikni chuqurlashtirishga intilishining yaqqol siyosiy belgisidir. Tashrif 1992-yilda diplomatik munosabatlar o'rnatilganidan buyon erishilgan salmoqli yutuqlarni ifodalaydi va global muammolarni birgalikda hal etish bo'yicha bizning umumiy intilishimizni tasdiqlaydi.

"Dunyo" AA.

INVESTITSIYAVIY MUHIT YANADA YAXSHILANADI

Keyingi yillarda davlatimiz rahbari boshchiligida Yevropa Ittifoqining yetakchi mamlakatlari bilan ko'p qirrali, o'zaro foydali va pragmatik munosabatlarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ular orasida Fransiya alohida o'rin tutadi.

Hozirgi kunda ikki davlat o'rtasida ayniqsa, siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy, ilmiy-gumanitar sohalarida keng hamkorlik yo'lga qo'yilgan bo'lib, bundan ikkala davlat ham o'zaro manfaatdor.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Fransiya Respublikasi Prezidenti Emmanuel Makronning taklifiga binoan ushbu mamlakatga tashrifi ikki davlat o'rtasidagi hamkorlik sohasida tub burilish yasadi, desak, ayni haqiqat. Xalqaro maydonda tobora yuksak siyosiy mavqega ega bo'lib borayotgan O'zbekiston va Fransiya o'rtasidagi o'zaro manfaatli aloqalarni yanada mustahkamlash mamlakatimizning Yevropa Ittifoqi bilan munosabatlarini shakllantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Zero, keyingi yillarda qit'aning yetakchi davlatlaridan sanalgan Fransiya bilan munosabatlarimiz barcha yo'nalishda jadal rivojlanib borayotir.

Buning natijasida o'tgan yilda tovar ayirboshlash hajmi ilk bor 1 milliard yevrodan oshdi, qo'shma korxonalar soni 4 barobar ko'paydi.

Davlatimiz rahbari uzoq muddatli kooperatsiya aloqalarini yo'lga qo'yishga ko'maklashish maqsadida O'zbekiston – Fransiya investitsiya kengashini ta'sis etish va uning birinchi yig'ilishini joriy yil iyun oyida Toshkent investitsiya forumi doirasida o'tkazishni taklif etdi. Bu esa mamlakatimizda investitsiya muhitini yanada yaxshilash, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlari va boshqa muhim sohalariga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni kengaytirish, ilg'or xalqaro tajribalarni hisobga olgan holda sifatlil investitsiya jarayonlarini tashkil etishga xizmat qiladi. Ayni paytda investitsiya va xalqaro tashkilotlarning mablag'larini jalb etish mamlakatning iqtisodiy o'sishini ta'minlaydi, aholi farovonligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Bugungi globalashgan dunyoda hech qaysi davlat yakka holda rivojlana olmaydi. Faqatgina o'zaro manfaatli hamkorlik, o'zaro ishonch mamlakatlar taraqqiyotiga xizmat qiluvchi yagona yo'l, desak, ayni haqiqat.

Shuhrat ASLANOV,
Oliy Majlis Senatining
Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi a'zosi.

Senat qo'mitalarida

BARCHASI INSON UCHUN



Senatning Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi majlisida bir qator muhim masalalar ko'rib chiqildi.

Unda dastlab "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga ba'zi turdagi tamaki mahsulotlarining, tamakini va nikotinni iste'mol qilish moslamalarining muomalasiga doir talablarni yanada kuchaytirishga qaratilgan o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish to'g'risida"gi qonun muhokama qilindi.

Mamlakatimizda aholi o'rtasida, ayniqsa, bolalar va yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, jumladan, tamaki mahsulotlarining tarqatilishini va iste'mol qilinishini cheklash bo'yicha tizimli ishlar olib borilayotir.

Shu bilan birga, so'nggi yillarda tamaki va nikotin mahsulotlarining yangi turlari, xususan, elektron sigaretalarni qonunga xilof ravishda mamlakatimizga olib kirish hamda muomalaga kiritish hollari ko'paymoqda.

Mazkur qonun aholi, ayniqsa, bolalar va yoshlar sog'lig'iga xavf tug'diruvchi salbiy holatlarning oldini olish maqsadida ishlab chiqilgan. Qonun bilan Jinoyat va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslarga muomalasi taqiqlangan tamaki mahsulotlari, nikotin yetkazib berishning elektron tizimlari, jumladan, elektron sigaretalarni va ular uchun suyuqliklarni ishlab chiqarish, tayyorlash, olish, saqlash, tashish yoki o'tkazish, shuningdek, olib kirish va olib chiqish uchun javobgarlik belgilanishini nazarda tutuvchi o'zgartirishlar kiritilmoqda.

Bundan tashqari, qonun bilan tamakini qizdirish tizimlarini qonunga xilof ravishda muomalaga kiritish hamda ishlab chiqarish uchun ham ma'muriy va jinoyi javobgarlik belgilanmoqda.

Yig'ilishda Oliy Majlis Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman)ning 2024-yildagi faoliyati to'g'risidagi ma'ruzasi ham tinglandi.

Ombudsman instituti tomonidan fuqarolarning

murojaatlarini ko'rib chiqish va ularning buzilgan huquqlarini tiklash, qiyosqqa solish holatlarining oldini olish, inson huquqlari sohasida aholining huquqiy madaniyatini oshirish, shuningdek, davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari va milliy institutlar bilan hamkorlik yo'nalishlarida qator ishlar bajarilgan.

Ombudsman 2024-yilda kelib tushgan murojaatlar soni oldingi yildagiga nisbatan 25 foizga oshgan. Ayniqsa, ijtimoiy sohaga taalluqli murojaatlar soni 2023-yildagiga qaraganda keskin ravishda, ya'ni 82 foizga ortganligi tashvishlanarlari ekanligi qayd etildi.

Bundan tashqari, fan, ta'lim va sog'liqni saqlash sohasidagi Ombudsman tomonidan fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab sudlarga kiritilgan dav'o-arizalari, shuningdek, inson huquq va erkinliklarini ta'minlash bo'yicha tashkilot va mansabdor shaxslarga qo'llanilgan ta'sir choralari ko'rib chiqish natijadorligi muhokama qilindi.

Senatorlar Inson huquqlari bo'yicha vakilga ijtimoiy sohaga taalluqli bo'lgan muammolarning oldini olish hamda bartaraf etish bo'yicha tegishli choralar ko'rish, bunda Ombudsmaning ta'sir choralari bilan samarali va qonunchilik tashabbusidan kengroq foydalanish bo'yicha tavsiyalar berdi.

Majlis yakunida ko'rib chiqilgan masalalar bo'yicha senatorlarning munosabati e'tiborga olinib, qo'mitaning tegishli qarori qabul qilindi.

MUHOKAMA QIZG'IN KECHDI

Oliy Majlis Senatining Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya qo'mitasi majlisida bir qator qonunlar muhokama qilindi.

Senatorlar tomonidan dastlab "O'zbekiston Respublikasining Suv kodeksini tasdiqlash to'g'risida"gi qonun ko'rib chiqildi.

Mamlakatimizda suv resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlash, tegishli tarmoq va sohalarda suv tejevchi texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Sohada olib borilayotgan islohotlar natijasida o'tgan asrning 90-yillaridagiga nisbatan suv sarfi yiliga 64 mlrd. metr kubdan hozirgi kunda o'tacha 51 mlrd. metr kubgacha kamaytirildi.

Biroq yangi rivojlanish strategiyasining shakllantirilishi va shunga mos ravishda suv munosabatlarning ijtimoiy-iqtisodiy asoslari o'zgartirilishi suvga oid qonun hujjatlarini

qayta ko'rib chiqish zaruratini vujudga keltirmoqda.

Bugun muhokamaga sabab bo'lgan qonunning qabul qilinishi suvdan oqilona foydalanish, uni samarali boshqarish va muhofazasi hamda suv xo'jaligini rivojlantirish uchun huquqiy shart-sharoitlar yaratadi va xalqaro suv huquqi me'yorlarini milliy suv qonunchiligida aks ettirish va ushbu yo'nalishda O'zbekistonning xalqaro maydondagi ijobiy imijini yaxshilashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, suv munosabatlari sohasidagi asosiy huquqiy hujjatlarini Suv kodeksida jamlash imkonini beradi.

Majlisda, "Hayvonlarni

identifikatsiya qilish, yo'xyatga olish va kuzatish to'g'risida"gi qonun ham muhokama markazida bo'ldi. Mazkur qonunning maqsadi hayvonlarni identifikatsiya qilish, yo'xyatga olish va kuzatish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Qonunning qabul qilinishi natijasida hayvonlarning nasli va sog'lig'i holati to'g'risida axborotni o'z ichiga olgan hayvonlar hisobini yuritishning yagona elektron tizimi yaratiladi, ular xavfli yuqumli kasalliklarga qarshi davlat tomonidan to'liq bepul profilaktik emlanishiga erishiladi. Natijada respublika hududiga hayvonlar yuqumli kasalliklari kirib kelishining oldini olish va veterinar osoyishtalikni ta'minlashga yo'naltirilgan tadbirlarni tizimli ravishda amalga oshirish imkoni yaratiladi.

Majlis yakunida ko'rilgan masalalar yuzasidan qo'mitaning tegishli qarori qabul qilindi.

AYRIM QONUNLARGA O'ZGARTIRISH VA QO'SHIMCHALAR KIRITILMOQDA

Oliy Majlis Senati Byudjet va iqtisodiy masalalar qo'mitasining bo'lib o'tgan navbatdagi majlisida bir qator qonunlar dastlabki tarzda muhokamadan o'tkazildi.

Keyingi yillarda banklar faoliyatini tartibga soluvchi qator qonunlar qabul qilindi va bank nazorati takomillashtirib berildi. Banklarni sanatsiyalash tizimi to'lovga layoqatsiz banklarni tekzor tartibda sog'lomlashtirish yoki tugatish, shuningdek, ularning iqtisodiyot uchun muhim bo'lgan vazifalari va xizmatlari uzluksizligini ta'minlash, omonatchilar va kreditdorlar manfaatlarini himoyalash, banklarning byudjet mablag'lariga qaramligini kamaytirish, mijozlarning bank tizimiga ishonchini oshirish imkonini beradi.

"Banklarni sanatsiya qilish va tugatish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni ham ushbu vazifalarni hal etishga qaratilgan.

Majlisda muhokama etilgan "Kreditlarning garov bilan ta'minlanish talablarini qanoatlantirish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun bilan kreditlarning garovdagi mulkka nisbatan huquqlarining ustuvorligini ta'minlash, ularning talablarini sudan tashqari tartibda qondirish tizimini rivojlantirish, ushbu tizimni takomillashtirish, majburiyatlarini garovdagi mol-mulk hisobidan undirish jarayonlarini soddalashtirishni nazarda tutuvchi me'yorlar kiritilmoqda.

Bundan tashqari, majlisda "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun ham muhokama etildi. Ushbu qonun bilan Suv kodeksiga qo'shimchalar kiritilmoqda. Jumladan, parrandachilik mahsulotlari ishlab chiqaruvchi tadbirkorlik subyektlari 2030-yil 1-yanvarga qadar yuridik shaxslardan olinadigan yeri solig'ini to'lashdan ozod etilishi nazarda tutilmoqda.

Shuningdek, "Aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimcha kiritish to'g'risida"gi qonun ham muhokama etildi.

Mazkur qonun bilan fuqarolarga davlat xizmati ko'rsatish sifatini yangi bosqichga olib chiqish, sohaga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, fuqarolarning pensiya ta'minotini xalqaro standartlar va zamon talablariga muvofiqlashtirish maqsadida "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida", "Davlat boji to'g'risida" va "Aholi bandligi to'g'risida"gi qonunlarga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish nazarda tutilmoqda. Jumladan, yoshga doir pensiya olish huquqini beradigan yoshga o'lgan fuqarolarga ularning murojaatini talab qilgan holda pensiya tayinlanishini hamda fuqarolarning shunday tartibda tayinlangan pensiyani rad etish huquqini nazarda tutuvchi qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilmoqda.

Muhokama yakunida ko'rib chiqilgan masalalar yuzasidan qo'mitaning tegishli qarorlari qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

KORRUPSIYANING OLDINI OLISHDA DAXLDORLIK VA MAS'ULLIK



Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisida Prezident Shavkat Mirziyoyevning shu yil 5-mart kuni o'tkazilgan Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengashning kengaytirilgan yig'ilishidagi nutqida belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirish bo'yicha Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va uning qo'mitalari oldida turgan vazifalar ko'rib chiqildi.

Majlisda so'zga chiqqan qo'mitalar raislari korruptsiya illatini yo'qotish bo'yicha o'z munosabatlarini bildirib, kelgusidagi rejalarini o'rtog'lashdilar.

Nuqtai nazar

Sharofiddin NAZAROV, Byudjet va iqtisodiy masalalar qo'mitasi raisi:



Ochig'ini aytish kerakki, haqiqatan ham qonun ijodkorligi va parlament nazorati tadbirlarida tegishli sohalarida korruptsiyani

keltirib chiqaruvchi omillar, ularning oldini olish va profilaktika choralariga oid ko'plab masalalar qo'mitamiz e'tiboridan chetda qolgan ekan. Shu bois faoliyatimizni qayta ko'rib chiqib, yangicha yondashuvlarni joriy qilish ustida ishimizni boshlab yubordik.

Ayni vaqtda soliq, byudjet va bank sohaslarida, shuningdek, moliyaviy xizmatlar borasida korruptsiya illatlarini keltirib chiqarayotgan omillarni birma-bir o'rganib chiqaymiz.

Ish rejimizda qo'mitamiz a'zolarining hududlarga chiqib, Davlat byudjeti mablag'laridan amalga oshiriladigan dasturlarning bajarilishi ustidan ta'hlillarni o'tkazish ham ko'zda tutilgan. Bu jarayon doimiy bo'ladi. Bunda moliyaviy operatsiyalar shaffofligi va korruptsiya omillari mavjudligiga alohida e'tibor qaratiladi.

Ushbu o'rganishlar jarayonida davlat xaridlarini tizimi va bu borada qonunchilikka qanday amal qilinayotganligi o'rganiladi, xaridlarini amalga oshirish mexanizmlarida korruptsiyaga oid boshliqlar aniqlanadi va bu bo'yicha tegishli takliflar ishlab chiqiladi.

Qo'mitamiz korruptsiyaga qarshi faoliyatini samarali tashkil qilish maqsadida quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratadi.

Davlat byudjetining shakllanishi va uning ijrosini ta'minlashda korruptsiyaviy omillar joylarga chiqib, mahallalarga borib aniqlanadi hamda ularni bartaraf etish uchun amaldagi qonunchilikka aniq takliflar tayyorlanadi;

moliyaviy nazorat mexanizmlarini yanada kuchaytirish ustida ish olib boriladi. Byudjet xarajatlarini ta'hlil qilishni tizimli yo'lga qo'yishda tegishli takliflar taqdim etiladi;

raqamlashtirish orqali davlat moliyasi, soliq va bojxona tizimlarida inson omilini kamaytirish, moliyaviy axborot tizimlari ochiqlikni ta'minlash, bunda ular faoliyati shaffofligiga e'tibor qaratish bo'yicha ish olib boriladi;

davlat xaridlarini jarayonida korruptsiyaga qarshi kurashni kuchaytirish, tanlov va tender jarayonlarining ochiq va shaffof o'tkazilishini ta'minlash bo'yicha qo'mita oldiga qo'yilgan aniq vazifa, ya'ni to'g'ridan-to'g'ri xaridlarini ikki karra qisqartirish bo'yicha aniq takliflar beriladi;

qonunchilik tashabbuslarini ishlab chiqish jarayonida jamoatchilik fikrini inobatga olish, Davlat byudjetining shaffof va samarali boshqarilishini ta'minlash maqsadida jamoatchilik

kengashlari bilan hamkorlik kuchaytiriladi.

Davlat moliyasi, bank tizimi, byudjet, soliq va pul-kredit siyosat mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy vositalaridan biridir. Ularning shaffofligi va samarali boshqarilishi uchun tegishli qo'mitalar, jamoatchilik, mas'ul vazirlik hamda idoralar bilan korruptsiyaning oldini olish borasida yagona kuch bo'lib harakat qilishimiz maqsadga muvofiq.

Ravshan MAMUTOV, Agrar va suv xo'jaligi masalalari qo'mitasi raisi:



Davlatimiz rahbari tomonidan bildirilgan muhim vazifalardan kelib chiqib, ish uslubimizni yanada takomillashtirgan holda, joylarga chiqib o'rganishlarni karrasiga oshirishni oldimizga vazifa qilib oldik.

Qo'mitamiz agrar va suv xo'jaligi tarmoqlarini ta'hlil etganda, ayrim holatlarda korruptsiyaning yuzaga kelish ehtimoli mavjudligi ko'zga tashlandi. Shundan kelib chiqib, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilari ko'targan qator yo'nalishlarga faoliyatimiz davomida jiddiy e'tibor qaratishimiz shart. Jumladan, yerga bo'lgan huquqlarni himoya qilish mexanizmini takomillashtirishda yerga bo'lgan huquqlardan, hattoki ixtiyoriy voz kechish ijarchilarning "yo'zma ariza" berishdan elektron tarzda o'z platformasi orqali amalga oshirilishi lozim. Bu yuzaga kelishi mumkin bo'lgan korruptsiyaviy holatlarning oldini oladi.

Paxta-g'alla yo'nalishidagi fermer xo'jaliklari yer maydonining bir qismiga boshqa qishloq xo'jaligi ekinlarini joylashtirish bo'yicha qonunchilikka norma mavjud bo'lib, undan barcha hudud birdek foydalanishining imkoni yo'q. Demak, bu borada shaffof tizim yaratish zarurati bor.

Davlat tomonidan ajratilayotgan subsidiyalarni elektron tarzda olish imkoniyati mavjud bo'lsa-da, subsidiya platformalariga bir xil shakldagi ariza va ma'lumotlar kiritilishiga qaramasdan, ayrim holatlarda "ma'lumotlar xato kiritilgan" degan vajlar bilan rad etish holatlari uchrayotgani bu tizimning chuqur ta'hlil qilinishini ta'zoza etadi.

Fermer xo'jaligi yoki boshqalar tomonidan suv resurslaridan foydalanilgan uchun soliq to'lovlar, asosan, ekin turi uchun belgilangan suv me'yorlaridan kelib chiqishi va suvning oldi-berdisi yozma dalolatnomaga orqali rasmiylashtirish o'rniga elektron tarzda taqdim etilishi to'g'ri yo'lga qo'yilishi ham adolati shaffof tizim yaratishga qaratilgan choralar hisoblanadi.

Hududlardagi mavjud pilla punktlarida topshirish-qabul qilish tizimini takomillashtirish, bu jarayonni onlayn ravishda kuzatuv kameralaridan va elektron tarozilardan foydalanilgan holda amalga oshirish muhim.

Albatta, ularning barchasi korruptsiya holatlarning oldini olishda ijobiy natija beradi.

Nodir JUMAYEV, Fan, ta'lim, madaniyat, sport va yoshlar masalalari qo'mitasi raisi:



Darhaqiqat, qo'mita oldida fan, ta'lim, madaniyat, sport va yoshlarga oid sohalarda korruptsiyaga qarshi kurashish borasida qilinishi lozim bo'lgan tizimli

masalalar ko'p. Ayni paytda qo'mitamiz tomonidan joylarda ta'lim, madaniyat xizmatlarini ko'rsatishda byurokratiya va korruptsiya xavflari izchil o'rganilmoqda.

Faoliyatimizni samarali tashkil qilish maqsadida kelgusida qator masalalarga alohida e'tibor qaratamiz. Eng avvalo, "Korruptsiya - kelajakka tahdid" degan g'oya asosida yangi O'zbekiston yoshlari, aziz farzandlarimiz qalbidan joy oladigan tizim yaratish bo'yicha chora-tadbirlar belgilab olinadi.

Ta'lim, madaniyat, sport sohaslarida maishiy korruptsiyaviy holatlar o'rganilib, qonunchilikka takliflar tayyorlanadi va davlat idoralarga tegishli tavsiyalarni berishda tashabbuskor bo'lamiz.

Shuningdek, ushbu sohalarda raqamlashtirish, inson omilini kamaytirish, korruptsiyaga qarshi kurashish borasida qabul qilingan qonunlar, Prezidentimizning Farmon va qarorlarining vazirlik va idoralar, hokimliklar tomonidan o'z vaqtida, mohiyatan to'g'ri bajarilishi ustidan parlament nazorati o'rnatiladi.

Mustaqil fikr, qat'iy pozitsiyaga ega yosh avlodni tarbiyalash bo'yicha oliy ta'lim tashkilotlarida talaba va yoshlarning korruptsiyaga qarshi loyihalari, startap hamda innovatsion tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash tizimini yo'lga qo'yishda ishtirok etamiz.

Davlatimiz rahbari tomonidan korruptsiyaga qarshi ilgari surilgan 55 ta aniq maqsadga yo'naltirilgan tashabbuslarni amalga oshirishda biz, deputatlar alohida faollik ko'rsatamiz.

Nazira MUXTOROVA, Mehnat, sog'liqni saqlash va ijtimoiy masalalar qo'mitasi raisi:



Haqiqatan ham, korruptsiyaga qarshi kurashishda tizimda shaffoflikni ta'minlash, byurokratik to'siqlar, mayda maishiy korruptsiya holatlar hanuzgacha bor va uni bartaraf etish

borasida ko'plab masalalar qo'mitamiz e'tiboridan chetda qolgan ekan.

Aholini tashvishlantirayotgan masalalar va korruptsiyaviy xavflarni aniqlash, yechim topish borasida o'z faoliyatimizni qayta ko'rib chiqdik hamda yangicha yondashuv bilan ish boshladik. Xususan, 8-9-mart kunlari hududlarda bo'lib, "mahalla yetiligi" vakillari bilan uchrashdik, aholi duch kelayotgan qator muammolar to'g'risida suhbatlashib, taklif va fikrlar olingi.

Bugun tibbiyot sohasidagi muammolarni o'rganish jarayonida qabul qilingan dasturlar ijrosi yakunlanmagani, birlamchi tibbiy xizmat sifati pastligi, korruptsiya holatlar ustidan nazorat o'rnatish maqsadida ishonch raqamlarining uzluksiz ishlashi ta'minlanmagani kabi holatlar kuzatilmoqda. Mazkur to'siqlarni olib tashlash, davlat idoralari faoliyatidagi korruptsiyaviy holatlarni bartaraf etish bo'yicha tegishli takliflarni ishlab chiqish ustida ishlashni boshladik.

Qo'mitamiz faoliyatini samarali olib borish maqsadida kelgusida bir qator muhim masalalarga e'tibor qaratishni

ish rejimizda belgilab oldik. Jumladan, korruptsiya holatlari eng ko'p, deya aytilgan tuman tibbiyot birlashmalarida birlamchi tibbiy-sanitariya yordami faoliyati, dori-darmon vositalari bo'yicha xarid qilish tartiblari, bandlikka ko'maklashish bo'limlarida xizmatlarni raqamlashtirish masalalari qo'mita tomonidan chuqur o'rganiladi.

Qo'mita a'zolari ko'proq mahallalarga chiqib, joylarda tibbiyot muassasalariga ishga qabul qilish jarayonidagi byurokratik to'siqlarni bartaraf etish va xodimlarni ishga ochiq tanlov asosida olish tartibini belgilash bo'yicha o'rganishlar o'tkazadi.

Qonun ijodkorligi jarayonida ko'rib chiqilayotgan qonun loyihalari, qabul qilingan qonunlar talablarining bajarilishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatiladi.

Sohalarni raqamlashtirish, inson omilini kamaytirish, korruptsiyaga qarshi kurashish borasidagi qonunlar, shuningdek, Prezidentimizning Farmon hamda qarorlarining vazirliklar hamda idoralar, hokimliklar tomonidan o'z vaqtida, yuqori sifat bilan va to'g'ri bajarilishi ustidan parlament nazorati o'rnatiladi, tegishli takliflar kiritib boriladi.

Bobur BEKMURODOV, Tadbirkorlik, raqobatni rivojlantirish va sanoat qo'mitasi raisi:



Biz aholi va tadbirkorlarni tashvishlantirayotgan byurokratik to'siqlar hamda korruptsiyaviy xavflarni aniqlash va yechim topish borasida o'z faoliyatimizni to'liq qayta ko'rib chiqdik. Tadbirkorlar duch kelayotgan qator muammolar bo'yicha o'rganishlar o'tkazib, tegishli o'zgarishlar o'ziga takliflarni ishlab chiqish ustida ishlashni boshladik. Masalan, ko'p kvartirlari ularni boshqaruvchi kompaniyalar faoliyatini o'rganish jarayonida mazkur kompaniyalarni tanlashda mulkdorlar ishtiroki har doim ham ta'minlanmayotganligi, majburiy baddallarni belgilashda qonunchilik talablariga rioya qilinmasligi kabi holatlar aniqlanmoqda. Albatta, bu bo'yicha tegishli takliflar tayyorlanadi.

Ayni vaqtda qo'mitamiz tomonidan joylarda aholiga ichimlik suvini yetkazish va sohada servis xizmatlarini ko'rsatish borasidagi byurokratiya hamda korruptsiya xavflari ham chuqur o'rganilmoqda.

Faoliyatimizni yanada samarali tashkil qilish uchun kelgusida ustuvor masalalarga alohida e'tibor qaratishni ish rejimizda belgilab oldik. Chunonchi, deputatlarimiz ko'proq mahallalarga chiqib, joylardagi maishiy korruptsiyaviy holatlarni o'rganishda qonunchilikka takliflar tayyorlaydi va davlat idoralarga tegishli tavsiyalarni berishda tashabbuskor bo'ladi.

Qonun ijodkorligi jarayonida qonunlarni korruptsiya, idoraviy manfaatlar va byurokratik to'siqlardan to'liq xoli qilishimiz lozim. Yaqinda ushbu normalarni o'z ichiga olgan yangi qonunni qabul qildik. Uning talablari bajarilishi ustidan, albatta, qat'iy nazorat o'rnatiladi.

Doimiy ravishda tadbirkorlarni qiynayotgan byurokratik to'siqlarni o'rganish holda ishlalarni muhitini yaxshilash borasida faollik ko'rsatamiz.

Qonunlarni qabul qilishda ko'proq jamoatchilik bilan muloqotga tayyan ish tutamiz. Yaqinda har bir qo'mita huruzida jamoatchilik kengashlari tashkil etildi. Endilikda qonun loyihalarini odamlarimizning fikriga tayangan holda jamoatchilik kengashlari bilan birgalikda ko'rib chiqamiz va qonunlarning yanada xalqchil bo'lishini ta'minlaymiz.

"Xalq so'zi".

AHOLINI KAMBAG'ALLIKDAN CHIQARISH BO'YICHA QANDAY CHORALAR KO'RILMOQDA?

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi tashabbusi bilan navbatdagi "Hukumat soati" bo'lib o'tdi. Unda "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi doirasida aholini kambag'allikdan chiqarish borasida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida "gi masala muhokama qilindi.

"Hukumat soati"

Kun tartibidagi ushbu masala yuzasidan deputatlarining savollariga Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vaziri B. Zohidov javob berdi.

Vazirning qayd etishicha, olib borilgan tizimli ishlar natijasida yurtimizda 2024-yilda kambag'allik darajasi 11 foizdan 8,9 foizga kamaygan. Sayxunobod tajribasi orqali mahallalarda 326 mingta mikroiyohani amalga oshirish

hisobiga 578,6 mingta yangi ish o'rnini tashkil etilgan. Uy xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi va tomorqadan olgan daromadlari 15 foizga oshgan. 2024-yilning o'zida 67,7 ming nafar ishsiz, ayniqsa, kambag'al oila a'zolarining tadbirkorlik, kasanachilik, hunarmandchilik faoliyatini rag'batlantirishga 355 mlrd. so'm subsidiyalari ajratilgan.

"Hukumat soati" da deputatlariga aholini daromadli

mehnat bilan ta'minlash bo'yicha 2025-yilning o'tgan davrida amalga oshirilgan chora-tadbirlar yuzasidan ham ma'lumot berildi.

Ta'kidlanganidek, "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi doirasida "Kambag'al oilalar reestri" ishga tushirilgan. Bugungi kunga qadar 881 mingta oilaning turmush sharoiti o'rganilib, ularning 416 mingtasi "Kambag'al oilalar reestri"ga kiritilgan.

Ushbu oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilash chora-tadbirlarini amalga oshirish bo'yicha "Individual reja" amaliyoti joriy etilgan. Mazkur institut doirasida 55,1 ming kambag'al oilaning daromadini oshirishga kiritilgan 77 mingta xizmat

ko'rsatilgan. Jumladan, 15,2 ming fuqaro ishga joylashtirilgan, 14,5 ming nafariga kredit va subsidiya ajratilgan, 44,1 ming fuqaro tadbirkorlikka jalb qilingan, 3,5 ming nafari kasb-hunarga va tadbirkorlikka o'qitilgan.

Deputatlar sohada amalga oshirilayotgan ishlarini e'tirof etib, aholini daromadli mehnat bilan ta'minlash, ishsizlik darajasini tushirish, nogironligi bo'lgan shaxslarning bandligiga erishish bo'yicha vazirning rejalarini qiziqdi.

Zohidovning ta'kidlashicha, 2025-yilda 1,5 million aholini kambag'allikdan chiqarish, kambag'allik darajasini 6 foizgacha qisqartirish belgilangan. Bunda kambag'al oilalar reestriga kiritilgan 400 mingdan ortiq

oilalarga individual dastur ishlab chiqiladi.

Shu bilan birga, 20 ming naf

O'ZBEKISTONNING KAVKAZ MINTAQASIDAGI MUHIM SHERIGI

O'zbekiston va Gruziya o'rtasida savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va madaniy-gumanitar aloqalar izchil rivojlanmoqda. Ikki davlat o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 2024-yilda 50 foizga oshgan bo'lsa, 2025-yilning yanvar oyida bu ko'rsatkich 18,5 mln. dollarni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davridagiga nisbatan 38 foiz ko'paygani ham fikrimiz dalili. Bugungi kunda poytaxtlar orasida to'g'ridan-to'g'ri aviaparovozlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda gruziyalik investorlar ishtirokida tashkil etilgan raqamli bank faoliyat yuritilmoqda. Gumanitar yo'nalishda Tbilisi shahrida O'zbekiston madaniyati va kinosi kunlari muvaffaqiyatli o'tkazildi.

qola olgani uchun ham Gruziyani muvaffaqiyatli demokratik islohotlar va ichki muammolarga chidamlilik namunasi deb atash mumkin.

Toshkentdagi muloqotlarda O'zbekiston yuklari uchun Gruziyaning Poti va Batumi portlarining tranzit salohiyatidan foydalanishga alohida e'tibor qaratilganini ta'kidlash o'rinli. Gruziyaning O'zbekiston uchun Janubiy Kavkaz tranzit markazi sifatidagi strategik ahamiyatini inkor etib bo'lmaydi. Bir tomondan, Poti shahrida ko'p funksiyali yirik terminalning qurilishi o'zbek tovarlarining Yevropa bozoriga chiqishi uchun yangi imkoniyatlar ochayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, Gruziyaning dunyodagi yetakchi iqtisodiyotga ega davlatlar bilan erkin savdo to'g'risidagi kelishuvlarga ega ekanini O'zbekistonning eksport yo'nalishlarini diversifikatsiya qilish borasidagi ustuvor hamkoriga aylantirib beradi.

O'tgan yili O'zbekiston "Poti" erkin industrial zonasida yirik ko'p funksiyali terminal qurilishini boshladi. Loyiha 30 gektar maydonda amalga oshirilmoqda va umumiy investitsiya qiymati 18,3 million dollarga baholanmoqda. Qurilishning birinchi bosqichida sig'imi 1000 tonna bo'lgan muzlatilgan mahsulotlar ombori tashkil etilishi ko'zda tutilgan. Ikkinchi bosqichda maydoni 5 ming kvadrat metr bo'lgan umumiy yuklarning yopiq omborini qurish rejalashtirilgan. Uchinchi bosqichda quyma yuklar uchun omborxonalar hamda katta hajmli va konteyner yuklari uchun terminal quriladi. Ombor terminali keyinchalik Yevropaga eksport uchun O'zbekistonda yuklarni qabul qiladi. Bundan tashqari, bu yerdan Yevropa tovarlarini O'zbekiston va Markaziy Osiyoning boshqa davlatlariga yuklash ko'zda tutilgan.

O'zbekiston uchun Gruziya Janubiy Kavkazdagi erkin savdo kelishuvlari hamda raqobatbardosh bozoriga ega bo'lgan asosiy tranzit mamlakat hisoblanadi va O'zbekistonni G'arb bilan bog'lashda muhim strategik rol o'ynaydi. Shuningdek, transport va logistika sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish, jumladan, Boku – Tbilisi – Kars transport koridoridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishdan har ikki tomon manfaatdor. O'zbekiston

ikki asosiy yo'nalishni hisobga olgan holda Yevropaga yuk tashish hajmini oshirishga intilmoqda. Birinchisi – Kaspiy dengizi, Ozarbayjon va Gruziya, ikkinchisi – Turkiya orqali. Turkiya transport infratuzilmasi sekin rivojlanayotgani va temir yo'l aloqalari bilan bog'liq muammolar bo'is mahsulotlarni Gruziyaning Qora dengiz portlari orqali eksport qilish ustuvor vazifaga aylangan.

Bugungi kunda O'zbekiston Turkiya, Ozarbayjon va Gruziya hududlaridan o'tuvchi Boku – Axalkalaki – Kars temir yo'l tarmoqidan foydalanmoqda. Ushbu transport yo'lagi bizi G'arb bozorlariga olib chiquvchi eng qisqa tranzit yo'nalishi hisoblanadi.

Savdo-iqtisodiy aloqalarning rivojlanishiga bevosita ta'sir etuvchi omillardan biri transport va transport kommunikatsiyalari sohasidir. Bugungi kunda ikki mamlakatni bog'lab turuvchi hududlararo transport-kommunikatsiya tizimimiz savdo aloqalari rivojlanishini tasavvur etish juda qiyin. O'zbekiston va Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari uchun "O'rta yo'lak" Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan tashqi savdoda eng muhim yo'nalish hisoblanadi. U "rivojlanish dvigateli"ga aylinishi mumkin. Markaziy Osiyo va Kavkaz orqali Xitoy hamda Yevropa bozorlarini bog'lovchi avtomobil, temir yo'l va dengiz yo'llari tarmoqini – "O'rta koridor"ni mustahkamlash savdo-sotiqni rivojlantirish, ish o'rinlari yaratish va tadbirkorlikni rag'batlantirish orqali iqtisodiyot taraqqiyotiga hissa qo'shadi. Investitsiya va samaradorlik choralarini oshirish 2030-yilga borib yo'lak bo'lab harakatlanish vaqtini ikki baravar va savdo oqimlarini uch baravar qisqartirishi mumkin. Temir yo'llarni, shuningdek, intermodal va dengiz yo'nalishlarini modernizatsiya qilishda investitsiyalar zarur.

Osiyo – Tinch okeani mintaqasi davlatlari, Xitoy, Qirg'iziston, O'zbekiston, Turkmaniston, Ozarbayjon, Gruziya, Turkiya va Yevropani qamrab oluvchi xalqaro multimodal yo'nalishning joriy etilishi Markaziy Osiyoning yuk tashish vaqtini uch barobar qisqartirishi mumkin. Ushbu transport yo'lagining O'zbekiston va Gruziya orqali o'tishi nafaqat ikki davlatning tovar ayirboshlash hajmini

oshirish, balki ularning hududlari orqali tranzit yuk tashish hajmini sezilarli darajada ko'paytirish imkonini beradi.

Gap O'zbekistonda Turkmanistonning Turkmanboshi portiga, undan Bokuga, so'ngra Boku – Tbilisi – Kars (BTK) temir yo'li bo'lab Gruziya orqali Turkiyaga, O'rta Yer dengizi bo'yidagi Mersin portiga olib boradigan transport-tranzit avtomobil yo'lini shakllantirish haqida bormoqda. Bu Yaqin Sharq, Shimoliy Afrika, Yevropa mamlakatlari va hatto AQSH uchun qulay yo'nalish ochiladi, degani.

Shu o'rinda 2017-yil 18-mart kuni Toshkentda Ozarbayjon, Gruziya va O'zbekiston temir yo'l departamentlari rahbarlarining birinchi uch tomonlama uchrashuvi bo'lib o'tgani, unda tomonlar yuk tashish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni tezroq hal etish maqsadida ushbu mamlakatlar temir yo'llarining yagona vakolatxonasini ochishga kelishib olganini eslash kifoya. Gruziyaning dengiz darvozasi va "Ipak yo'li" loyihasining bir qismiga aylinish kerak bo'lgan Anakliya porti qurilishi ham ahamiyatli. Bu Kavkaz yo'nalishi bo'lab tovarlarni yetkazib berishning yana bir muqobilidir.

Bugungi kunda ustuvor vazifalardan yana biri "O'rta koridor" bo'lab savdoni osonlashtirish, chegaralarni boshqarish va xizmatlar ko'rsatishni yaxshilash muhim ahamiyatga ega. Bojxona va chegara boshqaruvi yetarli darajada raqamlashtirilmagan, bu esa samarali axborot almashinuvini cheklaydi. Bundan tashqari, muvofiqashtirilgan, rejalashtirilgan va vaqtga oid xizmatlarning yetishmasligi mavjud. O'zbekiston va Gruziya bu masalalarning tezroq bartaraf etilishini istaydi.

Gruziya Bosh vazirining O'zbekistonga tashrif aloqalarimizni yangi bosqichga olib chiqadi. O'zbekistonning tashqi savdo imkoniyatlarini kengaytadi. Mahalliy tadbirkorlar uchun Gruziya orqali xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyati yanada oshadi. Diplomatik aloqalar mustahkamlanib, xalqaro maydonda hamkorlik kuchayadi.

Baxtiyor NASIMOV,
Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti birinchi prorektori.

"Mahmudxo'ja Behbudiy. Millat ehtiyojiga baxshida umr" risolasi nashr etildi

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Milliy arxeologiya markazi bosh ilmiy xodimi, tarix fanlari doktori, professor Dilorom Alimovaning "Mahmudxo'ja Behbudiy. Millat ehtiyojiga baxshida umr" risolasi nashr etildi.



Prezidentimizning tegishli qarori ijrosi doirasida tayyorlangan mazkur risola Turkistondagi jadidchilik harakati yo'lboshchisi, ma'rifatparvar, adabiyotshunos, noshir va siyosatchi Mahmudxo'ja Behbudiy hayoti, ijodi, tarixiy hamda siyosiy qarashlariga bag'ishlangan. Uning asarlari va "Oyna" jurnalining tahlili asosida millat hamda Vatani ozodligi va ravnaqi yo'lidagi faoliyati yoritib berilgan. Taqdim etilayotgan mazkur risolaning keng jamoatchilik, ayniqsa, yoshlar uchun ahamiyati beqiyos. Unda ilk marotaba Mahmudxo'ja Behbudiy asarlarida Vatanimiz tarixiga oid bildirgan fikrlari bir joyga to'plangan.

Tabiat – bolalar nigohida

Ayni kunlarda yurtimizdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "Maktabgacha ta'limda tarbiya oyligi" davom etmoqda. E'tiborlisi, mazkur oylik doirasida bolajonlar o'rtasida turli tadbirlar, uchrashuvlar, musobaqa va tanlovlar tashkil qilinayotir.

"Yashil sayyora" va "Tabiat – bolalar nigohida" mavzidagi rasmlar tanlovi ana shulardan biridir. Unda o'quvchilar o'ziga xos niqob bilan yashil sayyoramizni aks ettirishdi.

Bunday tadbirlar bolajonlarda ona tabiatni asrash, unga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish kabi tuyg'ularni shakllantirishga xizmat qiladi.

Talabaniy tashabbusi – amaliyotda

O'tgan yil noyabr oyida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri Qo'ng'irov Sharipov Termiz davlat pedagogika institutining iqtidorli yoshlari bilan ochiq muloqot o'tkazgan edi.

Muloqot davomida ushbu institut talabasi Xurshida Tojmurudova o'zbek tilining nufuzini oshirish maqsadida "Bexato yozaman" tanlovini o'tkazish taklifini ilgari surgan va bu vazir tomonidan qo'llab-quvvatlangandi.


Ushbu tashabbus doirasida institutda ilk bor nofilologik ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar o'rtasida "Bexato yozaman" tanlovi tashkil etildi. Unda 300 nafarga yaqin talabalar qatnashdi. Ishitirokchilar tanlov nizomi talabalariga muvofiq uchta shart asosida belgilashdi.

Tanlov yakuniga ko'ra g'oliblar aniqlanib, pul mukofotlari bilan taqdirlandi.

Mazkur tashabbus yoshlar o'rtasida ona tiliga hurmat va savodxonlik madaniyatini oshirish yo'lida muhim qadam bo'ldi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar maydoni kengaymoqda

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar departamentiga qarashli "Nurota" va "Surxon" davlat qo'riqxonalarida hamda "Zarafshon" milliy tabiat bog'i hududi Vazirlar Mahkamasi qarori asosida kengaytirildi.



Vazirlik ma'lumotlariga ko'ra "Nurota" davlat qo'riqxonasi hududi xazira yerlarni qo'shish hisobiga 4265,97 gektarga kengaytirilib, umumiy yer maydoni 22 017,97 gektarga yetkazilgan.

Shuningdek, "Zarafshon" milliy tabiat bog'i hududi 5 234,01 gektar, "Surxon" davlat qo'riqxonasi hududining umumiy yer maydoni 24 051 gektarga kengaygan.

Bundan tashqari, "Nurota" va "Surxon" davlat qo'riqxonalarining asosiy maydoniga tutash 33591,2 gektar yer maydoni qo'riqlanadigan zonalar sifatida belgilangan.

Mazkur qaror muhofaza etiladigan tabiiy hududlar maydonini kengaytirish orqali mavjud noyob turdagi o'simlik va hayvonlar himoyasi samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Rahim ShERQULOV
("Xalq so'zi") tayyorladi.

O'ZBEK XOKKEYI TARIXIDAGI OLAMSHUMUL G'ALABA

Poytaxtimizda Tailand Qirolligining Bangkok shahrida bo'lib o'tgan xokkey bo'yicha (U-18) jahon chempionatida ishtirok etib, g'oliblikni qo'lga kiritgan O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi xokkey jamoasining murabbiy va sportchilari bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.



Yunus BO'RIVAY olgan surati.

Rag'bat

O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi raisi Quddus R. Rafiqov tadbiri Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Fransiya Respublikasiga davlat tashrifi doirasida yuz bergan tarixiy xushxabar bilan boshladi. Xususan, Federatsiya raisi mazkur tashrif doirasida Parij shahrida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Fransiya Prezidenti Emmanuel Makron tomonidan tantanali ravishda Fransiya Respublikasining oliy mukofoti – Faxriy legion ordeni bilan taqdirlanganini yuksak faxr va g'urur bilan alohida ta'kidladi hamda mamlakatimizdagi 7 milliondan ortiq kasaba uyushma a'zolari va faollari bunday quvonchli xabarni zo'r mamuniyat va ehtirom bilan qarshi olganini bildirdi.

Shundan so'ng uchrashuvda yangi O'zbekistondagi xokkey ishqibozlarining ko'p yillik orzularini ro'yobga chiqargan g'alaba – yosh xokkeychilarimizning Bangkokda bo'lib o'tgan jahon chempionatida

(U-18) g'oliblikni qo'lga kiritgani alohida e'tirof etildi.

Ta'kidlash joizki, o'zbek xokkeyi tarixidagi mazkur olamshumul yutuqqa erishishda O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Muz ustida xokkey bo'yicha ixtisoslashtirilgan bolalar va o'smirlar sport maktabi o'quvchilaridan tashkil topgan yosh xokkeychilar jamoasi Janubiy Afrika, Lyuksemburg, Turkmaniston, Bosniya, Tailand kabi davlatlarning kuchli xokkey jamoalarini yengib, chempionlikni ko'lga kiritdi va o'zbek xokkeyi tarixida yangi sahifa ochib berdi.

O'zbekiston jamoasining jahon chempionatidagi o'yinlari yosh xokkeychilarimizning yuqori professional mahoratiga va raqiblaridan bir necha pog'ona ustunlikka ega ekanligini namoyish etdi.

Uchrashuvda aytilganidek, O'zbekiston yoshlarining jahon arenalarida erishayotgan mana shunday tarixiy yutuqlari va muvaffaqiyatlari Prezidentimiz tashabbuslari bilan yangi O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, professional sportchilarni tanlash va tayyorlash bo'yicha olib borilayotgan keng ko'lami islohotlarning amaliy

samarasidir. Jahon chempionati – yosh xokkeychilarimiz uchun chinakam iroda, jasorat va matonat maktabi bo'ldi. Shijoatli yoshlarimiz g'oyat keskin bellashuvlarda yuksak iroda ko'rsatib, jahon chempionati musobaqalarining haqiqiy qahramonlariga aylandi.

Shundan so'ng yuksak g'alabani qo'lga kiritgan O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining xokkey jamoasi yosh sportchilari va ularning murabbiylari Kasaba uyushmalari Federatsiyasi tomonidan munosib rag'batlantirildi – ularga tabriknomalar hamda pul mukofotlari topshirildi.

O'z navbatida, yosh xokkeychilarimiz yurtimizda sportning ushbu turini rivojlantirish maqsadida amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar va yaratilayotgan imkoniyatlar uchun minnatdorlik bildirib, kelgusida davlatimiz bayrog'ini yanada yuksaklarga ko'tarish, madhiyamizning dunyo arenalarida yongrashiga munosib hissa qo'shishga va'da berishdi.

Muhabbat O'RMONBEKOVA,
O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Matbuot xizmati rahbari.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

VAKANT (BO'SH) PROFESSOR-O'QITUVCHILAR LAVOZIMIGA TANLOV E'LON QILADI

- Tolali materiallarni dastlabki ishlash dotsent
- O'zbek va xorijiy tillar katta o'qituvchi assistent dotsent
- Charm va poyabzal muhandisligi dotsent
- Ipak va yigirish texnologiyasi dotsent
- Buxgalteriya hisobi va marketing assistent dotsent
- Kimyo va matbaa muhandisligi assistent dotsent
- Tabiiy fanlar dotsent
- Avtomatlashtirish va dasturiy injiniring dotsent
- To'qimachilik matolari texnologiyasi professor dotsent
- Mehnat muhofazasi va ekologiya katta o'qituvchi
- Materialshunoslik va standartlashtirish katta o'qituvchi
- Tikuv buyumlari texnologiyasi va raqamli injiniring dotsent
- Moda va dizayn professor
- Qu'shma ta'lim dasturlarini muvofiqlashtiruvchi bo'limi Parij xalqaro moda akademiyasi (Fransiya AICP) assistent

Tanlovda ishtirok etishni xohlovchilar rektor nomiga ariza bilan kadrlarni hisobga olish bo'yicha shaxsiy varaqa, diplom hamda attestat nusxalari, ilmiy ishlar va ixtirolar ro'yxati, malaka oshirganlik to'g'risida hujjatlar nusxalarini topshirishi shart.

Arizalar e'lon chiqqan kundan boshlab bir oy muddatda qabul qilinadi. Eslatma: mazkur institutda ishlovchi shaxslar o'tgan muddat bo'yicha kafedra hisobot beradi, tanlovda ishtirok etuvchilar sinov darslari o'tkazadi.

Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Shohjahon ko'chasi, 5-uy, 1-bino, 208-xona. Telefon: 71-253-17-78.

Ayni vaqtda "Jadidlar izidan" tanlovi g'oliblari Germaniyada ta'lim sayohatida bo'lib turibdi.

Xalq so'zi Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-242. 15 407 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yubkub olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va mulkiga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir X. Norboev.
Musahhif S. Isomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzil:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 03.45 Topshirildi — 03.50 1 2 3 4 5 6